



YURIST KASBIY FAOLIYATI DAVOMIDA MUAFFAQIYATGA ERISHISHIDA NUTQ MADANIYATINING O'RNI

Choriyeva Sevinch Fayzulla qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil davlatchilimiz yanada takomilasha borayotganligi, davlatimizda huquqiy islohotlar o'tkazilayotgan hozirgi sharoitda yuristning nutq madaniyati masalalari, shuningdek, yurist karyerasida yuksak natijalarga erishishidagi o'rni, yurist ommaviy nutq sirlari va notiqlik me'yorlari bilan tanishhasiz.

Kalit so'zlar: Notiqlik tushunchasi, yurist nutqi, yurist nutqi sifatiga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omillar, prokurorning ayblov nutqi.

Kishilik jamiyati paydo bo'libdiki, so'z va nutqdan foydalanish, uning imkoniyatlari doirasida fikr yetkazish va qabul qilishning turli usullari shakllangan. Notiqlik, voizlik ana shunday san'atdir. Ritorika, oratorlik, xatoba nomlari bilan ham yurituluvchi ushbu sa'nat har bir davrda o'sha zamonning mafkurasiga xizmat qilib kelgan. Shu ma'noda notiqliknini dudama xanjariga o'xshatishadi. Ya'ni u ikki tomonini ham kesuvchi quroldir. Bir tomonidan adolat tursa, ikkinchi tomonda adovat turadi. Kim undan qanday foydalanishishga bog'liq. Bu san'atdan buyuk bobokalonlarimiz Amir Temur, hazrat Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Boburlar unumli foydalangan.¹

Alisher Navoiy notiqlik mahorati borasida betakror fikrlarini bayon qiladi. U notiqlik sa'natining ichki mohiyatini tushuntiradi. So'z ko'ngilda pishib yetilmaguncha tilga chiqmasligini, aks holda aytilgan so'z, go'yo nafasdekkaytarilmasligini uqtiradi. So'zni ko'ngilda pishirib toblamaguncha tilga keltirma. Dilda bor so'z fikrlarning hammasi aytgulik bo'lavermaydi. Ichda yotgan so'zlarining sening sirlaring. Sir esa nafasga o'xshashdir. Chiqqan nafasday, uning ham sira qaytarilish imkon bo'lmaydi. Zamon rivoji, insonlar dunyoqarashi jadal rivojlangan va yuksak tarqqiy etgn hozirgi texnologiyalar davrida ham notiqlikning o'rni beqiyos. Juhon miqyosida xalq qalbi va ongi uchun keskin va shavqatsiz kurash ketayotgan bir paytda, bu jarayonga qarshi chuqr bilim va ma'rifat bilan javob bera olish, voizlik mahorati orqali fikr yetkazish san'atining egallanishini davrning o'zi talab etmoqda.²

Yuristlar nutqi ham o'ziga malaka, og'zaki nutq shakllarini egallahni talab qiladi. Yurist fikri yaqqol, aniq uslubiy jihatdan to'g'ri, ishonchli bo'lishi va u yurist ommaviy nutq me'yorlarini bilishi kerak. Bu sud muhokamalarining samaradorligini

¹ "Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya" R.U.KUCHKAROV, G.A.NOSIRXO'JAYEVA.Toshkent-2022. 89-bet

² "Yuristning nutq madaniyati" Sobir Usmonov. Tosheknt-2007.117-bet.



oshirishning asosiy shartlaridandir. Yurist o'z nutqidagi har bir mulohaza ustida aniq va puxta ishlashi lozim.

Ayniqsa, yuristlar ijtimoiy hayotda ko'pchilik bilan muloqatda bo'ladilar, har xil toifadagi kishilar guvohlar, jabrlanuvchilar, aybdorlar, jinoytachilar va boshqalar bilan ro'baro keladilar. Tergov va sud jarayonida o'ta ehtiyyotkorlik ularning tilga bo'lgan munosabatlarida yaqqol namayon bo'ladi. Qolaversa, yuristlar faoliyatni rasmiy hujjatlarsiz tasavvur qilish qiyin. Tergov ishlari bilan bog'liq turli bayannomalarini to'ldirish, sud hukmi, ayblov nutqini tayyorlash va boshqa rasmiy hujjatlarni o'ta savodxonlik bilan yozish ham ularning til vositalaridan foydalana olish qobilyatiga bog'liqdir. Demak, bo'lajak yuristning o'zi mohir notiq, nutqi esa mantiqli va ta'sirli bo'lishi davr talabi. Boshqa kasb egalari nutqida ham bo'lgani kabi yurist nutqining ham sifatida, uning tinglovchilari tomonidan samimiy qabul qilinishiga to'sqinlik qiluvchi qator holatlar mavjud. Ularning eng muhimlari quyidagilardir: Notiqning o'zi iste'hlosiz reklama qilishga urinishi, nutq qismlarining o'zaro bog'lanmasligi, nutqning tashkiliy zerikarliligi, tinglovchilar qarshisida sun'iy ilhom va jo'shqinlik yaratishga behuda urinish.

Nutq so'zlashda, albatta, asosiy fikr tezis bo'lishi va butun chiqish una qaratilishi kerak. Shuningdek auditoriya bilan doimiy aloqa o'rnatilishi kerak. Notanish auditoriyada notiq va tinglovchi o'rtasida tinglovchiga ta'sir qilishga xalaqit beradigan, rasmiylik ishonchsizlik devori bo'ladi. Bu devorni yo'q qilish uchun yurist quyidagi vositalarga ega bo'lishi lozim. Samimiylilik, (bu notiqning tabassumida ifodalanishi mumkin) ishonchli ohang, tabiiylik ,erkin harakat.

Yurist nutq madaniyatini prokuror ayblov nutqida ko'radigan bo'lsak. Prokuror ayblov nutqida u yoki bu jinoyatni fosh qilar ekan, fikrni faqat ayblov doirasida emas, balki bir vaqtning o'zida huquqiy madaniyat targ'ibotchisi ekanligini ham ko'rsata olishi maqsadga muofiqdir. Ya'ni jinoyatning kelib chiqishi va sodir bo'lish sabalari batafsil ma'lumot berish bilan birga, uning oldini olish borasidagi fikr va mulohazalarini bildira olishi ham uning nutqini yanada takomil topishiga sabab bo'ladi. Prokuror o'z nutqida jinoyatning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish bilan birga, sudlanuvchining shaxsiga, sodir etilgan jinoyatga siyosiy va huquqiy baho baho berishi ham ijobjiy holdir. Masalan yuzaga kelgan jinoyat inson sog'lig'i, hayoti va insoniy qadr –qimmatga nisbatan xavf solar ekan, fuqarlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan siyosiy, iqtisodiy, va shaxsiy huquqlari haqida to'xtalishi va buni sodir etgan jinoyatga, jinoyatchining shaxsiga bog'lasa yanada maqsadli bo'ladi. Mabodo jinoyat davlat mulkiga yoxud fuqarolarning xususuiy mulkini o'zlashtirish, talonchilik, bosqinchilik va firibgarlik bilan bog'liq bo'lsa, halol mehnatning, foydali mehnatning sharfi haqida to'xtalishi maqsadlidir.Tilshunos olimlar S.Ulmonov va Sh.Ziyamuxamedova fikricha, masalan, prokuror sud jarayonida ayblov nutqi so'zlar ekan, avvalo, o'zining madaniyatli inson ekanini ko'rsatishi talab etiladi.U har qanday sharoitda ham



taraflardan birontasiga do'q – po'pisa, tahdid qilishga haqli emas, hatto sudlanuvchi retsidivis jinoyatchi bo'lgan taqdirda ham uni kamsituvchi, masxaralovchi yoki kesatiq qochirim so'z va iboralarni aslo qo'llamasligi lozim.³

Chunki prokuror, nafaqat odamlar nazdida, balki rasmiy tarzda ham davlat odami, davlat ramzi hisoblanadi. Prokurorning asosiy quroli qonun va uni ta'sirchan ifodalovchi so'z ekanini aslo unutmasligi lozim. Shunga ko'ra, prokuror sud jarayonida davlat ayblovchisi sifatida ishtirok etar ekan, o'z nutqini mantiqan izchil aniq va tiniq zarur o'rnlarda rasmiylikka urg'u beraroq ifodalasa, ayni nutq ta'sirchanligi ortishi barobarida prokurorning nufuzi, obro'si ham yuksaladi.

Bundan tashqari , prokuror ayblov nutqida qilmishning oqibati jamiyat uchun o'ta zarar ekanligini hayotiy misollar asosida izohlashi kerkakki, sudlanuvchining ruhiyatiga, qalbiga ong-u shuriga yetib borsin, aybdorning bir umr yodida saqlansin.Natijada aybdor qanday jinoyat qilganligini anglab yetsin, o'ziga tegishli xulosa chiqarib olsin.Lekin nutqni me'yordan ortiqcha nasihatgo'ylikka aylantirib yubormasligi kerak.⁴

Xulosa shuni aytish mumkin, nutq madaniyati va huquqiy amaliyot haqidagi ilmiy ishlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, nutq madaniyati bilimning ko'nikmasiga aylanishidan boshlanadi. Kundalik muloqotda o'z-o'zidan, beixtiyor gapirishga odatlanib qolgan yurist sud jarayonida yoki hamkasblar o'rtasidagi muloqotda ham odatdagи xatolarni takrorlashi mumkin. Shuning uchun yurist doim nutq madaniyatini oshirish ustida ishlashi, bilimlarini nutq qobiliyati bilan bog'lashga intilishi lozim.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Huquqiy ko'nikmalar va medologiya darslik /Mualiflar jamoasi . - Toshkent
2. "Yuristning nutq madaniyati" darslik Sobir Usmonov.
3. "Mahbub ul-qulub" asari Alisher Navoiy.

³ "Yuristning nutq madaniyati" Sobir Usmonov. Tosheknt-2007.

⁴ "Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya" R.U.KUCHKAROV, G.A.NOSIRXO'JAYEVA.Toshkent-2022